Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 373.3
PEDAGOGIKA

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY MOTIVATSIYASINI INTENSIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Nodira Yo'ldoshevna Zikirova*
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti katta o'qituvchi
✉ zikirovanodira95@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda intensiv ta'lim texnologiyalarini o'rni, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashga, uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirishga va kasbiy kompetentlikni shakllantirish asosli ravishda yoritilgan.

Kalit so'zlar

texnologiya, intensiv ta'lim, kompetentsiya, metodik kompetentlik, integral, interaktiv, innovatsion, kognitiv, vazifa, o'z-o'zini rivojlantirish.

DOI: 10.5281/zenodo.21743722

Kirish

Hozirgi kunda respublikamizda ro'y berayotgan islohotlar bevosita innovatsion ta'lim tizimi bilan bog'liqdir. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik kasbiga yo'naltirish, tarbiyalash hamda kasbiy moslashtirish asosiy va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy motivatsiyasini intensiv ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirishning nazariy asoslari, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashga, uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirishga va kasbiy kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan. [1] Bunday rivojlanish jarayonining nazariy asosi sifatida ta'lim tizimidagi zamonaviy o'zgarishlar, yangi yondashuvlar va integratsiyalashgan o'quv uslublari muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak pedagoglarning o'quv faoliyatiga bo'lgan ichki motivatsiyasini shakllantirish

masalasi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli yo'nalishlarda o'rganilgan. Psixologiya va pedagogika fanida motivatsiya muammosiga oid asosiy yondashuvlar, nazariy qarashlar va ilmiy izlanishlar bu sohadagi bilimlarimizni kengaytirishga xizmat qilmoqda. Amerikalik psixologlar E.L. Dessi va R.M. Rayan tomonidan ishlab chiqilgan o'z-o'zini belgilash nazariyasi (Self-Determination Theory) motivatsiyani ichki va tashqiomillar asosida tafovutlaydi. Ular ta'kidlaganidek, ichki motivatsiya shaxsning erkin tanlovi,

avtonom qaror qabul qilishi va qoniqish tuyg'usiga asoslanadi. Bu nazariyaga ko'ra,

o'quvchi yoki talabaning o'z faoliyatini o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshirishi uni yanada samarali, ijodiy va barqaror motivatsiyalangan qiladi.

Rossiyalik olimlardan A.A. Leontyev, D.B. Elkonin, L.I. Bojovichlarning faoliyat

nazariyasiga asoslangan ishlari motivatsiyaning shakllanishida faoliyatning maqsadi, motivi va mazmuni o'rtasidagi aloqalarni aniqlashga yordam beradi. Ularning fikricha, motivfaqat tashqi rag'bat emas, balki shaxsning ichki ehtiyojlariga javob beruvchi psixik holat sifatida qaralishi kerak. [2] Mahalliy olimlardan A.A.

Karimov, Z.M. Musurmonova, G.T. Toshpo‘latova va B.T.

Qodirovalarning ilmiy ishlari ham bo‘lajak pedagoglarda kasbiy motivatsiya va o‘quvga bo‘lgan munosabat muammolariga e’tibor qaratgan. [3] Jumladan, Z.M. Musurmonova o‘z tadqiqotlarida pedagogik ta’lim oluvchilarda shaxsiy va kasbiy identifikatsiya jarayonlari ichki motivatsiyaning muhim manbai ekanligini ta’kidlaydi. G.T.Toshpo‘latova esa o‘quv faoliyatini rag‘batlantirishda interfaol metodlar va psixologik qo‘llab-quvvatlashning o‘rnini asoslab bergan. Yana bir muhim jihat shundaki, motivatsiya va o‘quv samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ichki motivatsiyalangan talabalar mustaqil fikrlashga, muammoli vazifalarni hal qilishga va ijodkorlikka ko‘proq moyil bo‘ladi.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ichki motivatsiyaning shakllanishi murakkab, ko‘p omilli jarayon bo‘lib, bu jarayonga shaxsiy, ijtimoiy va psixologik faktorlar birgalikda ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, bo‘lajak pedagoglarda ichki motivatsiyani rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan, integrativ yondashuvlar zarurdir. [4] Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy kompetensiyasi rivojlangan, fanlar tizimida innovatsion pedagogik faoliyatga tayyor bo‘lib, o‘quvchilardagi bilim, ko‘nikma, qobiliyat va kompetensiyalarni rivojlantiradi. Uning vazifalari quyidagicha: boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi innovatsion pedagogik faoliyatning asosiy tushunchalari, tarkibi va mezonlarini bilishi; boshlang‘ich ta’limda o‘tiladigan fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan texnologiyalarning nazariy asoslari, o‘ziga xos xususiyatlarini, darajalarini bilish va o‘rganish; o‘quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish va boshqarish yo‘llarini, o‘quvchilarga tabaqalashtirilgan, individual yondoshishni; boshlang‘ich ta‘lim fanlarini o‘qitishda modulli, muammoli, kreativ ta'lim, didaktik - o‘yinli, hamkorlikda o‘qitish hamda an’anaviy ta’lim texnologiyalarini, loyiha texnologiyalarini qo‘llashni; fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan, multimediya texnologiyalaridan foydalanishni; o‘quvchilarni kichik guruhlarda o‘qitish, ularda ijodkorlik izlanuvchanlikni shakllantirish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ishlashning shakllantirish usullarini egallashni bilishi kerak; ilmiy, ilmiy-metodik jurnallarda nashrdan chiqqan va o‘quv adabiyotlarida bor bo‘lgan, internet orqali berilgan o‘qitish jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalar haqidagi maqolalarni hamda axborotlarni mustaqil o‘rganib, tahlil qilish hamda ularni amaliyotda qo‘llash; istiqbolli o‘qitish vositalaridan foydalanish va ularga tayangan holda boshlang‘ich ta'lim fanlarini o‘qitish texnologiyalarini loyihalash, amaliyotga joriy eta olish bilim, ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish; o‘z pedagogik faoliyatlarini tahlil qila olishga, baholashga o‘rgatish; tahliliy, tanqidiy, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashdir. [5]

Xulosa

Intensiv ta’lim texnologiyalari bu borada muhim rol o‘ynab, o‘qituvchilarning o‘z kasbiga bo‘lgan qiziqishini oshirish, innovatsion metodlarni o‘zlashtirish va ularni amaliyotda qo‘llash imkonini beradi.

Intensiv ta’lim texnologiyalari o‘qitish jarayonini samarali va faol tashkil etib, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Interaktiv va innovatsion metodlar – bo‘lajak o‘qituvchilarning qiziqishini oshiradi. amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim – kelajakdagi kasbining mohiyatini chuqur tushunishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash – o‘qituvchining kasbiy rivojlanishiga turtki beradi.

Intensiv ta’lim texnologiyalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy motivatsiyasini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Ularning kasbiy qiziqishi oshishi uchun innovatsion va interaktiv metodlar qo‘llanishi zarur.

Adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli

2.Ryan, R. & Deci, E. (2000). Intrinsic and extrinsic motivations: Classic definitions and New directions. Contemporary Educational Psychology, 25, 54-67.

3.Yuldashev.M.A. Xalq ta‘limi xodimlarining malakasini oshirishda ta’lim sifati menejmentini takomillashtirish: ped.fan.dok. diss. -T.: 2016, -309 b.

4. Mavlonova R.O, To‘rayeva O, Xoliqberdiyev K. Pedagogika “O‘qituvchi” 2011.

5. YUNESKO xalqaro me’yoriy hujjatlari. / O‘zbekcha nashrining mas’ul muharriri l.Saidova. – T.: “Adolat”, 2004.